

S.X.JALILOVA

**TARAQQIYOT
PSIXOLOGIIYASI VA
DIFFERENSIAL
PSIXOLOGIIYA**

15(04)

521


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

JALILOVA SABOHAT XALILOVNA

TARAQQIYOT PSIXOLOGIIYASI VA DIFFERENSIAL PSIXOLOGIIYA

O'QUV QO'LLANMA

5210200 – Psixologiya (Umumiy psixologiya) ta'lim yo'nalishi
uchun



Toshkent
"Innovatsiya-Ziyo"
2020

UDK: 152.0

BBK: 88.83

J 21

Jalilova S. X.

Taraqqiyot psixologiyasi va differensial psixologiya/o'quv qo'llanma/.
– Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2020, 302 bet.

Ushbu o'quv qo'llanma psixologiya fanining asosiy sohalari orasida alohida o'rin egallovchi fan “Taraqqiyot psixologiyasi” bo'yicha yaratilgan. O'quv qo'llanma psixologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, unda “Taraqqiyot psixologiyasi va differensial psixologiya” fanining predmeti, maqsad va vazifalari, uning hozirgi davrdagi muammolari, fan doirasida ko'rib chiqiladigan asosiy mavzular yoritilgan. Xususan, qo'llanmada psixik taraqqiyotni davrlashtirish, psixik taraqqiyot qonuniyatlari, yosh inqirozlari hamda yosh davrlari tavsifi kabi masalalarga keng o'rin berilgan.

O'quv qo'llanmada taraqqiyot psixologiyasining asosiy masalalari yoritilgan.

Taqrizchilar:

Halilova N. I. -- Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi

Shamsiyev O. B. -- O'ZMU dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI TOMONIDAN NASHRGA TAVSIYA ETILGAN.**

ISBN 978-9943-6789-9-6

©Jalilova S., 2020.

© “Innovatsiya-Ziyo”, 2020.

KIRISH

Ma'lumki, har qaysi davlat, har qaysi millat, avvalo, o'z farzandlari qiyofasida, unib-o'sib kelayotgan yosh avlod timsolida shu xalqqa xos xususiyat va fazilatlarni namoyon etadigan, uning azaliy orzu-intilishlarini ro'yobga chiqaradigan buyuk kuchni ko'radi. Ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni voyaga yetkazish masalasi biz uchun umummilliy, umumdavlat miqyosidagi vazifa bo'lib, bu ezgu maqsad yo'lida amalga oshirilayotgan ishlarimizni izchil va qat'iyat bilan davom ettirish bugungi siyosatimizning diqqat markazida turibdi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim siyosatining muhim maqsadlaridan biri yosh avlodni har tomonlama barkamol insonlar qilib tarbiyalashdir. Albatta, barkamol inson deganda, ma'naviy jihatdan yetuk, o'z vatanining tarixi, buguni va kelajagi uchun qayg'uradigan, shuningdek, jamiyatning iqtisodiy taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shgan hamda qo'shish isxtiqida yonib yashaydigan shaxsni tushunish bugungi kun talabiga mos keladi. Ma'lumki, har qanday jamiyatning kelajagi yosh avlodning qanday ta'lim olishiga va qay tarzda tarbiyalanishiga bog'liq. Ana shunday avlodgina mamlakat oldida turgan umumdavlat ahamiyatiga molik vazifalarni bajarishga qodir bo'lib, o'z xalqining tarixiy taqdirini belgilab oladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda islohotlar tobora keng quloqchay bo'yimoqda, turmushning barcha jabhalarida keskin va shiddatli o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Bugungi kunda mustaqil fikrlaydigan, ijodiy faoliyat yuritadigan o'quvchilarni tarbiyalash asosiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Chunki ta'lim O'zbekiston xalqi ma'naviyatiga yaratuvchanlik baxsh etishi, o'sib kelayotgan yosh avlodning barcha orzu-umidlari zamonaviy ta'lim-tarbiya orqali ro'yobga chiqishi aniq va ravshandir.

Darhaqiqat, kelajak avlod haqida qayg'urish, sog'lom, barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirishga intilib yashash bizning milliy xususiyatlarimizdan biridir.

Zero, davlatimiz rahbari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev ushbu masalaning mohiyatini tavsiflab, "Biz uchun hech qachon kun tartibidan tushmaydigan o'ta muhim masala – bu unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimiz, farzandlarimiz tarbiyasi bilan bog'liq. Biz bir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz lozim: o'ta-ona, jamiyat e'tiboridan chetda qolgan bola oilaga quvonch va foyda o'rniqa faqat tashvish keltiradi. Shu bois bola tarbiyasi, yoshlar bilan ishlash biz uchun eng muhim va dolzarb vazifa bo'lib qolishi shart"¹. -deya ta'kidlab o'tilganligi ushbu masalaning mohiyatini, uning naqadar dolzarbligini ko'rsatib turibdi.

Haqiqatan ham, o'sib kelayotgan avlod haqida g'amxo'rlik qilish, har tomonlama sog'lom, uyg'un rivojlangan shaxsni tarbiyalashga intilish bu bizning milliy xarakterimizga xos jihatlardir. Taraqqiyot va kelajak tufayli amalga oshirilayotgan ishlarning taqdiri, uning samaradorligi, oldimizda turgan buyuk maqsadlarimizga erishish aynan voyaga yetayotgan avlodga bog'liq. Tashabbuskor, ijodiyotga va muloqotga qobiliyatli, yuksak mas'uliyatli, moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratuvchi, har tomonlama barkamol shaxsni maqsadga qarata shakllantirish birinchi navbatda har bir bolada ijobiy shaxs xususiyatlarini, yuqori intizomlilik, mas'uliyatlilik va xulq-atvor madaniyatini tarbiyalashni ko'zda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan 2019-2021-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining to'rtinchi yo'nalishida jismonan sog'lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish

¹ Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent, "O'zbekiston", 2017. – 64b.